

**SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMY DARAJA BERUVCHI**  
**PhD.26/26.01.2023.A.109.05 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT**  
**ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

**JURAYEVA ELVIRA ELMURADOVNA**

**O‘ZBEKISTON TARIXIY SHAHARLARIDAGI REGISTON**  
**MAYDONLARINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH AN‘ANALARI**

**18.00.01 – Arxitektura nazariyasi va tarixi.**  
**Arxitektura yodgorliklarini ta’irlash va tiklash**

**ARXITEKTURA BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI**  
**AVTOREFERATI**

**Samarqand - 2023**

**Arxitektura bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавления автореферата диссертации доктора философии  
(PhD) по архитектуре**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
architecture**

**Jurayeva Elvira Elmuradovna**

О'zbekiston tarixiy shaharlaridagi Registon maydonlarining shakllanish va rivojlanish an'analari 3

**Жураева Элвира Элмурадовна**

Традиции формирования и развития площадей Регистан в исторических городах Узбекистана 19

**Jurayeva Elvira Elmuradovna**

Traditions of formation and development of Registan square and historical cities of Uzbekistan 36

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ 39

List of published works

**SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI**  
**PhD 26/26.01.2023.A.109.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT**  
**ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

**JURAYEVA ELVIRA ELMURADOVNA**

**O‘ZBEKISTON TARIXIY SHAHARLARIDAGI REGISTON**  
**MAYDONLARINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH AN‘ANALARI**

**18.00.01 – Arxitektura nazariyasi va tarixi.**  
**Arxitektura yodgorliklarini ta’irlash va tiklash**

**ARXITEKTURA BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI**  
**AVTOREFERATI**

**Samarqand - 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/A54 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://www.taqi.uz/interaktiv-xizmatlar/taqi-ilmiy-faoliyati/> ixtisoslashgan-kengashlar/ avtoref. html) hamda «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mamatmusayev Toxir Shaydulovich**  
arxitektura fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Salimov Arifdjan Muslimovich**  
arxitektura fanlari doktori, professor

**Xasanov Akram Mo‘minovich**  
tarix fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi PhD26/26.01.2023.A.109.05 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_soat \_\_\_\_\_ da kichik faollar zalida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140147, Samarqand sh., Lolazor ko‘chasi, 70-uy. Tel.: (0366) 237-15-93; faks: (0366) 237-26-30, e-mail: [samdaqu@equ.uz](mailto:samdaqu@equ.uz), [samdaquarm@samdaqi.edu.uz](mailto:samdaquarm@samdaqi.edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat arxitektura–qurilish universiteti Axborot–resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_–raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 140147, Samarqand sh., Lolazor ko‘chasi, 70-uy. Tel.: (0366) 237-15-93; faks: (0366) 237-26-30, e-mail: [samdaqu@equ.uz](mailto:samdaqu@equ.uz), [samdaquarm@samdaqi.edu.uz](mailto:samdaquarm@samdaqi.edu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2023 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.S.Uralov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, arx.f.d., professor

**I.T.Maxmatqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, arx.f.b.f.d (PhD), dotsent

**D.N. Sultonova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, arx.f.d., professor v.b.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyoda tarixiy shaharlar, maydonlar hamda ulardagi me'moriy yodgorliklarni saqlash va ulardan unumli foydalanishga qaratilgan samarador yo'nalish faol rivojlanmoqda. Qadimiy shahar maydonlarini qayta qurish va modernizatsiyalashda tarixiy yadro-markazlar va binolar strukturasi saqlab qolish dolzarb hisoblanadi. Bu borada tarixiy shaharlarda muhim ahamiyatga ega bo'lgan maydonlar, majmualar, arxitektura yodgorliklarini saqlash va ta'mirlash ishlarini mezon talablari asosida olib borish turizm sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon miqyosida tarixiy hududlardan oqilona foydalanish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda tarixiy shahar hududlarini saqlab qolish, me'moriy obidalarni ta'mirlash, ularning umrboqiyiligini oshirish yo'llarini takomillashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada ushbu sohadagi me'yoriy hujjatlarning to'laqonli shakllantirilmaganligi, o'rta asrlarda shahar maydonlarining me'morchiligi rivojining istiqbolli yo'nalishlari kompleks tarzda o'rganilmaganligi tarixiy yodgorliklarni ilmiy jihatdan tadqiq etish yo'llarini rivojlantirish va ulardan zamonaviy maqsadlarda foydalanish sohasida ko'plab muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Jumladan, qadimiy shaharlar barqarorligini ta'minlash, tarixiy maydonlarning muhofaza zonasini yaratish, yodgorliklarning uch o'lchamli ko'rinishdagi elektron animatsiya modelini yaratish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda arxitektura va qurilish sohasini yanada takomillashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillardagi qurilish industriyasini innovasion rivojlantirish, me'moriy yodgorliklarni saqlash va ulardan oqilona foydalanish borasidagi muammolarni hal etish chora-tadbirlari izchil amalga oshirilmoqda. "Boy tariximiz durdonasi bo'lgan madaniy merosimizni asrab-avaylab, kelajak avlodlar uchun bezavol yetkazishimiz zarur"<sup>1</sup>. Bu borada tarixiy shaharlar markaziy maydonlarini saqlash va ulardan samarali foydalanish yo'llarini yanada takomillashtirish, tarixiy obidalardan mamlakatning sayyohlik imkoniyatlarini oshirishda oqilona foydalanish dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 11 apreldagi PF-5408-son "O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni, 2014 yil 21 iyuldagi PQ-200-son "Madaniy meros ob'yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasini yanada takomillashtirish to'g'risida", 2018 yil 19 dekabrda PQ-4068-son "Moddiy madaniy meros ob'yektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий мажлисга мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь.

I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tarixiy shaharlar va ular tarkibidagi maydonlar arxitekturasini yoritib berishda o‘rta asr tarixchilaridan Abdurazzoq Samarqandiy<sup>2</sup>, Abu Tohirxo‘ja Samarqandiy<sup>3</sup>, Ibn Arabshoh<sup>4</sup>, Nizomiddin Shomiy<sup>5</sup>, Zahiriddin Muhammad Bobur<sup>6</sup>, Sharafiddin Ali Yazdiy<sup>7</sup>, G‘iyosiddin Ali Yazdiy<sup>8</sup>, Xondamir, Rui Gonzales de Klavixo<sup>9</sup> va boshqalar o‘z hissalarini qo‘shishgan. Shaharsozlik tarixi va tipologiyasini tadqiq qilishda Ahmedov B., Ahmedov M.Q.<sup>10</sup> Asqarov Sh.D.<sup>11</sup>, Alimov O‘.<sup>12</sup>, Bulatov M.S.<sup>13</sup>, Vyatkin V.L.<sup>14</sup>, Zasipkin B.N.<sup>15</sup>, Zohidov P.Sh.<sup>16</sup>, Lavrov V.A.<sup>17</sup>, Masson M.Ye.<sup>18</sup>, Mankovskaya L.Yu.<sup>19</sup>, O‘rolov A.S.<sup>20</sup>, Raximov K.J.<sup>21</sup>, Yusupova M.A.<sup>22</sup>, Po‘latov X.Sh., Mamatmusayev T.Sh.<sup>23</sup>, Nilsen V.A.<sup>24</sup>, Nozilov D.A.<sup>25</sup>, Pugachenkova G.A.<sup>26</sup>, K. S. Kryukov Регистан. Ташкент 1970. Серия Самарканд 2500.<sup>27</sup> Pletnev I.Ye.<sup>28</sup>, Rempel L.I.<sup>29</sup>, Shishkin V.A.<sup>30</sup>, Durdiyeva G.S., Sultonova D.N., Eshov B.J., Nasriddinov Q., Ravshanov P., Salimov O.M.<sup>31</sup>, Manoev S.B.<sup>32</sup> Nurmuxamedova Sh.Z., Reyimbayev Sh.S., Qayumov H.I, Salaxiddinova D.Z, va boshqa olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Biroq, tarixiy shaharlarning markaziy yadrosida joylashgan Registon maydonlarining paydo bo‘lish va rivojlanish jarayoni, ularni ta’irlash, saqlash va qayta qurish yo‘llari bo‘yicha ma’lumotlar kam o‘rganilgan va ularni tadqiq etish tarixiy hududlarda turizm sohasini rivojlantirish uchun dolzarb ahamiyatga egadir.

<sup>2</sup> Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдаини ва мажмаи баҳраин (Форс-тожик тилидан таржима кириш ва изоҳли лугатлар А.Ўринбоев)//Т., 1969, 154-бет.

<sup>3</sup> Абу Тохирхожа. Самария.//Т., 1991 й. 16-17 бетлар.

<sup>4</sup> Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. I китоб.//Т., 1992 й. 86-бет.

<sup>5</sup> Низомиддин Шомий. Зафарнома.... 20-21-бет.

<sup>6</sup> Захриддин Мухаммад Бобур. “Бобурнома”// Т., 1989 й. 36-бет.

<sup>7</sup> Шарафуддин Али Яздий//“Зафарнома”, 1994, 224-226-бетлар.

<sup>8</sup> Гийасиддин Али. Дневник похода Тимура в Индию. //М., 1958.

<sup>9</sup> Руи Гонзалес де Клавиго. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Темура (1403-1406)//М., 1990 й. 136-бет.

<sup>10</sup> Ахмедов М.К. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. //Т.: 1995 й. 46-бет.

<sup>11</sup> Асқаров. Ш. Д. Архитектура Темуридов. //Т., Сан ат , 2009, 26-бет.

<sup>12</sup> Алимов. Ў. “Ўрта асрларда Мовароуннахрда богчилик хўжалиги тарихи”. // Т., 1984 й. 49-б.

<sup>13</sup> Булатов М.С. Сады Темура и темуридов. “Маскан”, 1993, №1.

<sup>14</sup> Вяткин В.Л. Материалы к исторической топографии Самаркандского вилайета, стр. 32

<sup>15</sup> Засыпкин Б.Н. Архитектурные памятники Средней Азии. -М.: 1928.

<sup>16</sup> Зоҳидов П.Ш.: Зеб ичра зийнат. Тошкент., 1985 й. 62-63-бетлар.

<sup>17</sup> Лавров В.А. Градостроительная культура Средней Азии. -М.: 1950.

<sup>18</sup> Массон. М.Е. Самаркандский мавзолей, известный под названием Ишратхана. //Т., 1958, с 14-17 бетлар.

<sup>19</sup> Маньковская Л.Ю. Типологические основы зодчества Средней Азии (IX-начало XX в.). -Т.: 1980.

<sup>20</sup> Ўролов А., Хожихонов М. Темурийлар маънавияти ва маданияти. -Самарқанд: 1996.

<sup>21</sup> Raximov K.D., Aumatov A.A., Me'moriy- tarixiy muhit va ta'mirlash asoslari.(o'quv qo'llanma)Samarqand 2023.

<sup>22</sup> Юсупова Д.Ю. Письма Гийас ад-Дина Каши к своему отцу из Самарканда в Кашан. // Из истории науки эпохи Улугбека. -Т.: 1979.

<sup>23</sup> Маматмусаев Т.Ш. Мирзо Улугбек даври архитетураси. Т.: 2014.

<sup>24</sup> Нильсен В.А., Манакова В.Н. Архитектурный декор памятников Узбекистана. -Ленинград: 1974.

<sup>25</sup> Нозилов Д. Чорбоғ. -Т.: 1997.

<sup>26</sup> Пугаченкова Г.А. Темуридинг меъморий мероси. Главная редакция энциклопедий.// Т., 1996 г. 7-8 стр.

<sup>27</sup> К. С. Крюков. Регистан. Ташкент 1970. Серия Самарканд 2500.

<sup>28</sup> Плетнев И.Е., Ю.З.Шваб. Формирование сложных архитектурных комплексов у мавзолеев Кусам-Ибн-Аббаса и Гур-Эмир/Материалы и исследования по истории и реставрации архитектурных памятников Узбекистана. Издательство художественной литературы им. Гафура Гуляма. //Т., 1967 г. 55 стр.

<sup>29</sup> Ремпель Л.И. Далекое и близкое. Страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары: Бухарские записи. -Т.: 1981.

<sup>30</sup> Шишкин В.А. Надписи в ансамбле Шахи-Зинда.// Зодчество Узбекистана, вып.П.Т., 1970.

<sup>31</sup> Салимов О. М. Сохранение и использование памятников Архитектуры Узбекистана. Монография. “Фан”. Тошкент-2009.

<sup>32</sup> Manoev S.B. O'zbekiston zamonaviy shaharsozligida me'moriy ansambl va komplekslar monografiya Samarqand 2014y.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «An'anaviy imoratsozlikning raqobatbardosh me'moriy konstruktiv usullarini tadqiq etish va ularning me'yoriy ma'lumotlar bankini yaratish» (2007-2011 yy.) va «O'zbekiston arxitekturasining mustaqillik mafkurasi asosida shakllanish qonuniyatlarini tadqiq etish va samarali rivojlantirish tamoyillarini ishlab chiqish» (2011-2016 yy.) mavzulari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** O'zbekistonning tarixiy shaharlarida shakllangan Registon maydonlarining rivojlanish bosqichlarini hamda yodgorliklari arxitekturasini ochib berish hamda ularni grafik qayta tiklash yuzasidan loyiha takliflarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tarixiy shaharlar tarkibiy tuzilishini o'rganish va tahlil qilish;

tarixiy shaharlar maydonlariga oid tarixiy, arxeologik va ilmiy ma'lumotlarni qiyosiy tahlil etish;

shaharlarda maydonlarning taraqqiy etish bosqichlarini aniqlash;

Registon maydonlarining tarixiy va kompozitsion yechimlarini ochib berish;

hozirda yo'qotilgan tarixiy Registon maydonlarini grafik qayta tiklash yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

Qarshi Registoni ob'yektlarini qayta tiklash loyiha takliflari orqali maydonning hajmiy-fazoviy jihatdan grafik ko'rinishi bo'yicha tavsiya ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida Samarqand, Buxoro, Toshkent va Qarshi tarixiy shaharlarida shakllangan Registon maydonlari va ularda joylashgan arxitektura yodgorliklari qamrab olindi.

**Tadqiqotning predmetini** Registon maydonlarining strukturaviy tuzilishi, me'moriy-rejaviy yechimi va qurilish qonuniyati tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda statistik, qiyosiy, tarixiy manbalar, qo'lyozma va arxiv materiallari, me'moriy obidalar loyihalarini tahlil qilish, grafik tiklash kabi tadqiqot usullari qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

O'rta Osiyo tarixiy shaharlaridagi Registon maydonlarida suv hafzasi masalasi alohida ahamiyat kasb etganligi, maydonlar tarkibida tabiiy ariq suvi (Toshkent), hovuz (Samarqand, Buxoro) va sardoba (Qarshi) mavjud bo'lganligi asoslangan;

tarixiy hududning turizm infrastrukturasi boyitishga xizmat qilgan, biroq hozirda o'zining tarixiy qiymatini yo'qotgan Qarshi shahri Registonining o'rta asrlardagi ilk ko'rinishi yuzasidan taklif loyihalari ishlab chiqilgan;

tarixiy shahar maydonlarining klassifikatsiyasi va shahar miqyosidagi ahamiyati aniqlanib, xorij maydonlarida (forum, agora, ratusha, qizil maydon) ko'proq ma'muriy ahamiyatga ega ob'yektlar joylashgan bo'lsa, O'rta Osiyo Registon maydonlarida ko'proq ijtimoiy funksiyadagi ob'yektlar joylashganligi dalillangan;

Registon maydonlari asosan shahar markazida joylashganligi, ular shahar rejasida ko‘chalar yo‘nalishini belgilab berganligi, maydonlar tartibli kompozitsion tuzilishga ega bo‘lganligi me‘moriy ansambllar ko‘rinishida shakllantirilganligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tarixiy shaharlardagi Registon maydonlarining qurilish bosqichlari hamda kompozitsion tuzilishlari aniqlangan;

Registon maydonlarining funksional tarkibiy tuzilishi va ulardagi joylashgan ob‘yektlar tipologiyasi hamda arxitekturasi shakllanish jarayonlari aniqlangan;

bizgacha saqlanmagan Registon maydonlaridagi masjidlar, madrasalar, xonaqohlar va boshqa ob‘yektlarning ilk ko‘rinishlari grafik qayta tiklangan;

Samarqand, Qarshi, Buxoro, Toshkent shaharlari Registon maydonlarining dastlabki ko‘rinishi yuzasidan grafik loyiha takliflari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda qo‘llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va eksperimental loyiha ishlari ishlab chiqilganligi, tadqiqot natijalarining xalqaro va mahalliy tajribalar bilan taqqoslanganligi, xulosa hamda olingan natijalarning Respublikadagi vakolatli tashkilotlar tomonidan e‘tirof etilganligi to‘g‘risidagi dalolatnomalar bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati arxitektura va shaharsozlik sohasidagi bilimlarni kengaytirish va boyitish bilan birga oliy ta‘lim muassasalarida “Shaharsozlik tarixi” fanini o‘qitishda, me‘moriy loyiha tashkilotlari amaliy faoliyatini samarali tashkil etishda katta ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shahar markaziy maydonlarini, me‘moriy obidalarni ta‘mirlash va qayta qurish amaliyotida hamda arxitektura va qurilish tashkilotlari faoliyatida, oliy ta‘lim muassasalarida shaharsozlik tarixi fanlarini o‘qitishda ilmiy manba sifatida xizmat qilishi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbekiston tarixiy shaharlaridagi Registon maydonlarining shakllanish va rivojlanish an‘analari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

O‘rta Osiyo tarixiy shaharlardagi Registon maydonlarida suv havzasi masalasi alohida ahamiyat kasb etganligi, maydonlar tarkibida tabiiy ariq suvi (Toshkent), hovuz (Samarqand, Buxoro) va sardoba (Qarshi) mavjud bo‘lganligi asoslanganligi, tarixiy hududning turizm infrastrukturasi boyitishga xizmat qilgan biroq hozirda o‘zining tarixiy qiymatini yo‘qotgan Qarshi shahri Registonning o‘rta asrlardagi ilk ko‘rinishi yuzasidan ishlab chiqilgan taklif loyihalari bo‘yicha xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2023 yil 7 apreldagi 04-12/1080-son ma‘lumotnomasi). Natijada Registon maydonlarining tarixiy kompozitsion tuzilishi yuzasidan aniq xulosalar olish imkoni yaratilgan;

tarixiy shahar maydonlarining klassifikatsiyasi va shahar miqyosidagi ahamiyati aniqlanib, xorij maydonlarida (forum, agora, ratusha, qizil maydon) ko‘proq ma‘muriy ahamiyatga ega ob‘yektlar joylashgan bo‘lsa, O‘rta Osiyo Registon maydonlarida ko‘proq ijtimoiy funksiyadagi ob‘yektlar joylashganligi

dalillanganligi, Registon maydonlari asosan shahar markazida joylashganligi, shahar rejasida ko‘chalar yo‘nalishini belgilab berganligi, maydonlarning kompozitsion tuzilishi bo‘yicha takliflar O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2023 yil 7 apreldagi 04-12/1080-son ma‘lumotnomasi). Natijada tarixiy shaharlarining markaziy maydoni Registonning tarixiy kompozitsion tuzilishi yuzasidan aniq xulosalar olish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy–amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 18 ta ilmiy ish, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 7 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Ilmiy konferensiyalarda 5 ta, jumladan 3 ta xorijiy, 2 ta respublika to‘plamlarida nashr etilgan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi 2 ta jilddan tashkil topgan. I jild matn qismi bo‘lib, uning hajmi 120 betni tashkil etib, kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan. II jild albom shaklida bo‘lib, rasm, rejalar, sxemalar, chizmalar, fotosuratlardan iborat. Taqdimot materiallari 42x59 sm o‘lchamli A2 formatdagi 43 ta planshetlarda tayyorlangan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob‘yekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan hamda olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning 1-bobi **“Tarixiy shaharlarning shakllanishi va rivojlanishi”** deb nomlanib, uch bo‘limdan iborat. Ushbu bobda tadqiqot mavzusi doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar hamda ularning ilmiy adabiyotlarda yoritilishi tahlil qilingan. Birinchi bobning **“Tarixiy shaharlarning rivojlanish bosqichlari”** deb nomlangan birinchi paragrafida O‘rta Osiyo shaharlarining rivojlanish jarayonlari yoritilgan. Bunda O‘rta Osiyo hududida joylashgan tarixiy shaharlarning, xususan Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Buxoro, Xiva, Toshkent va boshqa shaharlarning rivojlanish jarayonlari ko‘rib chiqilgan.

T.Mamatmusayev o‘z tadqiqotlarida **“O‘rta Osiyo shaharlarining aksariyati qadimdan to XX asrning boshlarigacha bo‘lgan davrda chodirli, dual, ikki yoki uch qismli va ikki tuzilmali tarzda shakllangan”**<sup>33</sup> degan xulosaga kelgan.

---

<sup>33</sup> Маматмусаев Т.Ш. Ўзбекистон тарихий шаҳарларининг шаклланиши ва ривожланиши. Докторлик диссертацияси. Тошкент: 2019.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi sakkizta shaharning bir necha yillik yubileylari nishonlangan. Samarqandning 2750 yillik, Qarshi va Shahrisabzning 2700 yillik, Xiva, Buxoro va Termiz shaharlarining 2500 yillik, Toshkent shahrining 2200 yillik va Marg‘ilon shahrining 2000 yillik yubileylari shular jumlasidandir. Har bir davrda shaharlar o‘ziga xos strukturaviy tuzilishga ega bo‘lgan. Qadimgi va antik davr shaharlari ko‘proq to‘g‘ri to‘rtburchak va kvadrat shaklida shakllangan bo‘lsa, o‘rta asr shaharlari uch qismli tarzda rivojlangan.

Samarqad shahri ham o‘rta asrlarda uchta tarixiy qismdan iborat bo‘lib, eng qadimgi qism (Afrosiyob), o‘rta asrlarga mansub qism (Amir Temur va temuriylar davri) va shaharning Yevropa qismi (XIX asrning 2-yarmi – XX asrning boshi)dan iborat. Har bir qism o‘ziga xos rejaviy tizimga ega bo‘lgan. O‘rta asrlarda ko‘pchilik shaharlar radial-halqasimon sxemada shakllangan. Shahar darvozalaridan keladigan asosiy ko‘chalar shahar markaziga qarab yo‘nalgan. Ular halqasimon ko‘chalar orqali birlashtirilgan.

Tarixiy Qarshi, Shahrisabz shaharlari va Xiva Ichan qal‘asi to‘g‘ri to‘rtburchak tarzda shakllanib, to‘rttadan kirish darvozasiga ega bo‘lgan. Ushbu darvozalardan keladigan asosiy ko‘chalar shahar markazida kesishgan.

Bobning “O‘rta asrlarda tarixiy shaharlarning tarkibiy tizimlari” deb nomlangan 2-paragrafida O‘rta Osiyo shaharlarning tarkibiy tuzilishi yoritilgan. O‘rta asrlarda yirik shaharlar asosan 3 ta asosiy qismga ega bo‘lgan. Ular ark, shahriston va rabod qismlaridir. Har bir qism mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan, odatda ark 2 ta darvozaga, shahriston 4, 6 va 12 ta darvozaga ega bo‘lgan, shahar markazida Chorsu va Registon maydonlari shakllangan.

Ark shaharning birlamchi zaruriy qismi hisoblanib, unda shaharning boshqaruv binolari, sarbozlar uchun joy, saroy, masjid, haramxona, zarbxona, zindon, kichik bog‘ va boshqalar joylashgan. Shahriston esa shaharning ikkinchi navbatdagi zaruriy qismi hisoblanib, unda shahar aholisining turar joylarini o‘zida mujassam etgan mahallalar, shaharning asosiy maydoni hisoblangan Registon, bozor, ta’lim muassasalari (madrasa-i oliya, madrasa), diniy binolar (masjid, xonaqoh, maqbara) va boshqalar joylashgan. Shahriston mudofaa devori bo‘ylab handaqlar qazilgan. Rabod esa shahar atrofi hududi hisoblanib, shaharni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlab turgan. Bu yerda shahar atrofidagi bog‘lar shakllangan.

1-bobning “Tarixiy shaharlar markazlari” deb nomlangan 3-paragrafi shahar maydonlariga bag‘ishlangan. Ko‘pincha, shaharlarning umumiy jamoat markazi uning geometrik markazida joylashgan. Yirik shaharlarda umumiy markazdan tashqari shaharning ma’lum bir qismlariga tegishli bo‘lgan maxsus markazlar ham shakllangan. Bunday jihatni biz tarixiy Toshkent shahri misolida ko‘rishimiz mumkin. Ushbu shaharda shaharning geometrik markazida chorsu-bozor va Registon maydoni shakllangan. Shahar 4 ta dahaga bo‘lingan va har bir daha o‘zining markaziga ega bo‘lgan. Masalan, Shayhontoxur dahasining markazi Shayhontoxur majmuasi, Sebzor dahasining markazi Hazrati Imom majmuasi, Ko‘kcha dahasining markazi Zayniddin buva majmuasi hamda Beshyog‘och dahasining markazi Zangi ota majmuasi hisoblangan.

Shahar markazlari umumiy va maxsus funksiyaviylik nuqtai nazaridan savdo, g'oyaviy, ziyorat, ma'rifat va boshqa turlarga ajralgan. Shahar markazlarining sathi butun shaharga nisbatan olinganda ba'zan katta hududni egallagan. Shaharlarning tarkibida mavqei jihatidan turli darajaga ega bo'lgan markazlar mavjud bo'lgan. Funksiyaviylik nuqtai nazaridan umumshahar markazini, daha markazlarini hamda mahalla markazlarini ajratish mumkin. Me'moriy-badiiy jihatdan markazlar turli, katta-kichik ob'yektlardan iborat bo'lgan majmualar shaklida rivojlangan. Umumshahar markazlar asosan shaharning geometrik markazida joylashgan. Funksional jihatidan u keng qamrovli bo'lib, ijtimoiy, savdo-sotiq hamda g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarni o'zida mujassam etgan.<sup>34</sup>

X.Po'latovning fikricha, "Tarixiy markazlar qatorida alohida o'rinlarni shaharning ma'muriy-mudofaa tuzilmalari va ijtimoiy-siyosiy maydonlari egallaydi. Ma'muriy-mudofaa tuzilmalar O'rta Sharq mamlakatlarida diz, qal'a, ark, o'rda kabi nomlar bilan, Yevropa mamlakatlarida zamok, sitadel, detines, krom, kreml kabi nomlar bilan atalib kelingan. Ijtimoiy-siyosiy maydonlar ko'proq mos ravishda ratusha, krasnaya ploshad, agora, forum, Registon nomlari bilan atalgan. Umumshahar markazida savdo-sotiq muhiti – bozor ustuvor o'rinni egallagan".

Umuman olganda, O'rta Osiyoda tarixiy shaharlar tabiiy muhit, qulay joylashuv, yaxshi iqlim sharoitiga ega bo'lgan joylarda shakllanib taraqqiy etib borgan. Shaharlar ko'pincha karvon yo'llari bo'ylarida va suvga yaqin hududlarda shakllana boshlagan. Shaharlar tashqi xavfdan saqlanish maqsadida mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Har bir davrda shaharlar o'ziga xos strukturaviy tuzilishda shakllangan. Shaharlarning asosiy yadrosi uning ko'pincha geometrik markazida joylashgan Registon maydonlari hisoblangan.

Dissertatsiyaning "**Registon maydonlarining taraqqiyot bosqichlari**" deb nomlangan ikkinchi bobi uch bo'limdan iborat bo'lib, unda maydonlarning taraqqiyot jarayonlari ko'rib chiqilgan.

Bobning "Tarixiy shaharlardagi dominant inshootlar" deb nomlangan birinchi paragrafida o'rta asrlar shaharlarida joylashgan dominant inshootlarning joylashuv strukturasi, shuningdek Chor Rossiyasi davrida eski shahar markazlarining ahamiyatining tushishi va eski shaharlarga tutash tarzda shakllangan yangi shaharlar markazlarining shakllanishi xususida qisqacha to'xtalib o'tilgan.

O'rta asrlarda Samarqand shahrida dominant majmualar asosan temuriylar davrida shakllangan edi. Bunday majmualarga Amir Temur jimesi, Registon maydoni va Go'ri Amir maqbara majmuasini misol qilib keltirish mumkin. Agar ushbu majmualarning shaharda joylashuvini ko'radigan bo'lsak, ular bir o'qda shakllangan. Bu o'sha davrlarda ham shaharlar ma'lum bir shaharsozlik qonuniyatlariga bo'ysundirilganligidan dalolat beradi.

XIX asrning 2-yarmida O'rta Osiyo hududi Yevropa va Rossiya madaniyati bilan to'qnash keladi. Rus me'morlari Yevropa shahar modellarini Turkiston o'lkasiga moslashtirib kiritishni boshlaydi. Rus shaharlari dastlab qal'a devori ichida rejalashtirilib, sekin-astalik bilan kengaya borgan. Toshkentda rus shahri

---

<sup>34</sup> Пулатов Х., Маматмусаев Т. Шаҳарсозлик ёдгорликларини қайта қуриш. Монография. Тошкент: 2017, 21-б.

o'lkada shakllangan shaharsozlik qonuniyatlari asosida, ya'ni piyoda yurish radiusi 1500 m bo'lgan qonuniyat asosida rejalashtirilgan edi.<sup>35</sup> Bunday "yangi shaharlar" ayrim qadimiy shaharlarning chekkalarida, yonlarida, ulardan ma'lum bir masofada vujudga kela boshlaydi. Samarqandda va Toshkentda dastlabki "yangi shaharlar" qadimgi qal'alar buzib, ularning o'rinlarida quriladi.<sup>36</sup> Eski va yangi qismlardan iborat bunday shaharlar, keyinchalik "ikki qismli" yoki "ikki strukturali" shaharlar deb nom olgan. Samarqand va Toshkent shaharlarida yangi shahar bo'sh hududda uch nurli rejada shakllantiriladi.

XX asr boshida shaharlarda o'tkazilgan temir yo'l sanoat va ishlab chiqarish hududlarining paydo bo'lishiga olib kelgan edi. Ushbu hududlar asosan temir yo'llar bo'ylab shakllangan edi.

XX asrning 2-yarmida shaharlarda ko'p qavatli dominant binolar va ansambllar shakllana boshlaydi. Toshkentning eski shahar qismida Alisher Navoiy ko'chasini g'arb tomondan yakunlab beruvchi 23-qavatli Chorsu mehmonxonasi (1983 y.) quriladi. Ushbu ko'chaga parallel ravishda o'tgan O'zbekiston ko'chasini esa yakunlab beruvchi 20-qavatli mehmonxona binosi ham loyihalangan edi. Lekin bu bino qurilmagan. Mustaqillik yillarida uning o'rnida Halqaro banklar assotsiatsiyasi binosi qurilgan.

Bu vaqtlarda ko'p qavatli binolarni asosiy ko'chalar bo'ylab kompleks tarzda uyg'unlashtirib joylashtirish misollarini Toshkent shahrida ko'plab uchratish mumkin. Masalan, O'zbekiston ko'chasi bo'ylab joylashgan 1970-1987 yillar oralig'ida qurilgan 5 ta 16 qavatli ma'muriy binolar; Beruniy ko'chasida 1971-1975 yillarda qurilgan 5 ta 9 qavatli turar-joy binolari; 1980-1984 yillarga mansub yarim aylana shaklda rejalangan Hamid Olimjon maydoni va boshqalarni aytib o'tish mumkin. Shuningdek, bu davrda Toshkentda Mustaqillik va Halqlar do'stligi maydonlari ham shakllanadi.

Umuman olganda, eski va yangi shahar hududlarida ko'chalar bo'ylab dominant binolar majmualari qad rostlaydi. Ma'muriy va madaniy maydonlar shakllanadi. Aholi soni oshib boradi va shaharlar hududiy jihatdan kengayadi. XIX asrning 2-yarmida rivojlanishiga unchalik ham e'tibor berilmagan tarixiy hududlar sekin-astalik bilan taraqqiy eta boradi.

Ushbu bobning "Registon maydonlarining kompozitsion tuzilishi" deb nomlangan ikkinchi paragrafida O'rta Osiyoda Registon maydonlarining kompozitsion shakllanishi haqida so'z boradi. Shaharlardagi markaziy maydon, turli maqsadlarda odamlar to'planadigan joy bo'lgan. Registon ko'p hollarda shahar arki yoki hokimlar saroylari yoni (Buxoro, Shahrisabz, Xiva)da barpo etilgan hamda ular ma'muriy, ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan. Dastlab me'moriy jihatdan sodda bo'lgan, ko'pchilik tomonidan toptaladigan bu maydonga yozda tuprog'i ko'tariladigan, yog'ingarchilik paytida botqoqlikka aylanishidan saqlash maqsadida qumtoshlar yotqizilgan. Shu xususiyati bilan boshqa ochiq maydonlardan farqlangan. Keyinchalik davrlar o'tishi bilan Registon atrofiga mahobatli jamoat binolari (jome masjidi, madrasa, xonaqoh va boshqalar) qurilgan, hovuz, daraxtlar bilan obodonlashtirilib, hashamatli ko'rinish olgan. Masalan,

<sup>35</sup> Аскарлов Ш.Д. Генезис архитектуры Узбекистана. -Т.: 2014.

<sup>36</sup> По'латов X. Shaharsozlik tarixi. O'quv qo'llanma. - Т.: 2008. - 249 b.

Buxoro Registoni arkning janubida joylashgan, Shahrisabz shahri Registoni Oqsaroyning janubida bo'lgan, Qarshi shahri Registoni esa XV asrda shakllanib, shahar markazida joylashgan, Qo'qon Registoni Chorsu yaqinida joylashgan, Xivada Registon Ko'hna Arkning sharq tomoniga tutash bo'lgan, Toshkent Registoni Chorsu maydonida shakllangan (XV-XVII asrlar). Registonlarning ichida eng ulug'vori va to'liq shakllangan holda bizgacha yetib kelgani Samarqanddagi maydon hisoblanadi.

2-bobning "Registon maydonlaridagi ob'yektlar arxitekturasi" deb nomlangan uchinchi paragrafida Registon maydonlaridagi ob'yektlar va ularning saqlanish darajalari bo'yicha fikr yuritilgan.

Samarqand, Buxoro, Toshkent va Qarshi tarixiy shaharlari Registon maydonlarini o'rganish, ushbu maydonlarda joylashgan ob'yektlarni tahlil qilish maydonlarni tashkil qilib bergan ob'yektlarning ayrimlari azaldan saqlanib kelinayotganligi, ayrimlari esa buzilib, ularning o'rnida yangi binolar qad ko'targani, ayrimlari esa umuman saqlanmaganligini ko'rsatdi.

Samarqand Registoni XV asrda o'ziga xos tarzda shakllanib, quyidagi ob'yektlarni o'z ichiga olgan edi. Maydonning vujudga kelishi Mirzo Ulug'bek madrasayi-oliyasini bunyod etish bilan boshlangan. Ushbu ob'yekt maydonning g'arbiy tomonida joylashib, 1420 yilda qurilishi yakunlangan. Madrasa qarshisida, u bilan yagona o'qda 1425 yildagi hujjatga ko'ra buzib tashlangan Mirzo Ulug'bek xonaqohi qurilgan edi. Maydonning shimoliy tomoni katta Mirzoi, ya'ni Mirzo Ulug'bekniki deb nomlangan karvonsaroy qurilgan. Janubiy tomonda esa ikkita masjid bunyod etilgan. Ulardan biri XIII-XV asrlarda vayron bo'lgan shahar jome masjidining o'rniga qaytadan tiklangan edi. Uning yonida Mirzo Ulug'bek buyrug'iga binoan unchalik katta bo'lmagan, ammo hashamatli Muqatta' masjidi qurilgan. Bu imoratning devorlari va shiftlari chiroyli o'yib ishlangan yog'och bo'laklari bilan bezatilgan. Masjid mehrobi Makka tomonga qaratib aniq yo'nalishda joylashtirilgan edi. Shu sababli ushbu masjidning maydonda joylashuv o'qi boshqa binolarga qaraganda bir oz o'zgargan holda bo'lgan. Mirzo Ulug'bek davrida madrasayi-oliya va xonaqohga yaqin joyda hammom qurdirilib, u "Mirzoi hammomi" nomi bilan atalgan. Samarqand Registonining XV asrdagi holatida maydon to'la ob'yektlar bilan o'rab olingan edi.

Bugungi kunda Samarqand Registon maydonini Mirzo Ulug'bek, Sherdor va Tillakori madrasalari belgilab beradi.

Buxoro Registon maydonida o'rta asrlarda barpo etilgan ob'yektlardan bugungi kunga qadar faqatgina Ark hamda Bolahovuz majmuasigina (1712-1714 yy.) saqlanib qolgan. Sovet ittifoqi davrida go'yoki qayta qurish ishlarida Registon maydoni hududidan o'tkazilgan keng yo'l unda qad ko'targan ko'plab ob'yektlarning buzilib ketishiga sabab bo'lgan. Toqi Tirgaron (qurolsozlar toqisi), markazida esa Toqi ord furushon (unfurushlar toqisi), Poyandabiy Otaliq masjidi (1617 y.), Bozori Gusfand madrasasi (1670-1671 yy.), Dor ush-shifo madrasasi (1682 y.), Usta Ruhiy xonaqohi, Xo'ja Nihol madrasasi, Shodimbiy madrasasi shular jumlasidandir. Bu Buxoro Registonining maydon sifatidagi ahamiyatining susayishiga olib kelgan.

Toshkent Registon maydoni ham bugungi kunda o'z ahamiyati darajasida saqlanib qolmagan. A.Ziyayevning tadqiqotlariga ko'ra, Toshkent Registonining asosiy ob'yektlaridan biri hozirda saqlanmagan Beklarbegi madrasasi hisoblangan. Maydonda, shuningdek, bugungi kunda saqlanmagan karvonsaroylar, Maxsido'zlik masjidi, Pushti hammomi va boshqa ob'yektlar joylashgan edi. Registon maydoni markazidan Tinchob arig'i oqib o'tgan (2-ilova).

Qarshi shahri Registonida qad ko'targan ko'plab ob'yektlar ham bugungi kunda saqlanib qolmagan. Chorsu, Abdullaxon, Choriboy, Sayidqulboy madrasalari va boshqalar shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy shaharlardagi Registon maydonlari yadro vazifasini bajargan va shaharning eng gavjum joylari hisoblangan. Kompozitsion tuzilishiga ko'ra, ular "ochiq maydoncha" uslubida shakllangan. Registon maydonlari davrlar o'tishi bilan tarkibiy jihatdan o'zgarib turgan. Ayrim binolar buzilgan bo'lsa, ularning joylarida yangi binolar qad ko'targan. Ikki tuzilmali shaharlarning paydo bo'lishi bilan ko'pchilik shaharlarda Registon maydonlarining ahamiyati pasaygan. Faqatgina Samarqand shahri Registoni o'z mavqeini saqlab qolgan (3-ilova).

Uchinchi bob **“Registon maydonlarini grafik tiklash yuzasidan takliflar”** deb nomlangan bo'lib, bobning “Samarqand va Buxoro Registonlarini grafik tiklash yuzasidan takliflar” deb nomlangan 1-paragrafida Samarqand Registonining XV asr holatini hamda Buxoro Registonini grafik tiklash haqida so'z boradi. Hisor (shahriston)ning geometrik markazida uning jamoat markazi hisoblanmish Registon maydoni joylashgan. Bu maydon shaharning asosiy yo'llari kesishuvini ta'minlagan. Samarqand Registonning XV asrdagi ko'rinishi xususida “Boburnoma”da quyidagicha keltiriladi: “Ulug'bek Mirzoning imoratlaridin Samarqand qal'asining ichida madrasa va xonaqohdur. Xonaqohning gunbazi bisyor ulug' gunbazdur, olamda oncha ulug' gunbaz yo'q deb nishon berurlar. Yana ushbu madrasa va xonaqohga yovuq bir yaxshi hammom solibdi, Mirzo hammomig'a mashhurdur, har nav' toshlardin farshlar qilibdur. Xuroson va Samarqanta oncha hammom ma'lum emaskim, bo'lg'ay. Yana bu madrasaning janubida bir masjid solibdir, masjidi Muqatta derlar. Bu jihattin Muqatta' derlarkim, qit'a-qit'a yig'ochlarini tarosh qilib, islimiy va hattoyi naqshlar solibturlar, tamom devorlari va saqfi ushbu yo'sunluqdir. Bu masjidning qiblasi bila madrasa va safi ushbu yo'sunluqtur. Bu masjidning qiblasi bilan madrasa qiblasining samti munajjim tariyqi bila amal qilibturlar”.<sup>37</sup> Mirzo Ulug'bek bunyod etgan madrasa va xonaqoh Registon maydonida mukammal majmuaning tashkil topishiga asos bo'lgan. Dissertatsiya ishida Samarqand Registonining XV asrdagi holatini grafik qayta tiklash ishlari tahlili amalga oshirilgan (4-ilova).

Samarqand Registonining XV asrdagi holatida maydon to'la ob'yektlar bilan o'rab olingan edi. XVII asrdagi qayta qurish ishlarida maydon uch tarafdin o'ralgan va janubiy taraf ochiq qoldirilgan. Maydon bu orqali “ochiq maydoncha” uslubida shakllangan va o'zining bugungi kundagi ko'rinishini olgan.

Buxoro Registoni ark g'arbida joylashgan bo'lib, tarixiy ma'lumotlarga ko'ra arablar bosqiniga qadar bo'lgan davrda shakllana boshlagan hamda XVI asrga

---

<sup>37</sup> Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент: 1989. 45-6.

